



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI




# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRILISHI

*(2023-yilning yanvar-iyul oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)*


## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 082,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,2 % ni tashkil etdi.


yanvar-iyul  
mlrd. so'm



yanvar-iyul  
FHI, %



Samarqand sh.






■ mlrd. so'm FHI, %

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (13 863,1 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (9 190,8 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.






## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-iyul oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 16 584,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,1 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (46,8 %), Jomboy tumani (10,0 %), Utgut (7,1 %), hamda Samarqand tumani (7,0 %), tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (116,1 %), Oqdaryo tumanida (113,1 %) hamda Qo'shrabot tumanida (109,7 %) kuzatildi.




## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-iyul oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Ishlab chiqarish 7,5 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 30,4 % ga, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 6,6 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 45,8 % ga pasayish kuzatildi.

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 184,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-iyul oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 15,9 % (13,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 20,1 % (17,9 %) va quyi texnologiyalisi 59,4 % (64,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,5 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,9 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,1 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyul	2023-yil yanvar-iyul	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	96,8	30,5	- 66,3
Paxta tolasi, ming t.	32,0	40,2	8,2
Tozalangan paxta yog'i tonna	8 581,0	11 534,0	2 953,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	251,0	201,2	- 49,8
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g. (buxanka), tonna	360,0	428,7	68,7
Uzum vinosi - ming litr	21,3	7,2	-14,1
Aroq – ming litr 100 % spirt	36,1	12,6	- 23,5

2023-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 428,7 tonna (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 19,1 % ga ko'paygan), 30,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (68,5 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-iyul oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 372 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 45,3 % ga kamaygan.



2023-yil

1 372 dona

2023-yil

54,7 %

2022-yil

2 510 dona

2022-yil

104,4 %

2021-yil

2 405 dona

2021-yil

99,7 %

## Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-iyul oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-iyul oylarida 454 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga kamaygan.



2023-yil

454 dona

2023-yil

80,9 %

2022-yil

561 dona

2022-yil

96,4 %

2021-yil

582 dona


2021-yil

123,3 %






## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 150,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 107,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 795,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 109,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,5 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 94,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 593,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 26,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 106,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 115,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 011,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 202,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 18,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,1 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 265,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 113,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 484,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 76,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 142,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 213,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 173,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 216,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 251,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,1 %.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 59,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 202,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 153,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 430,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 131,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 95,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 431,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 13,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,6 %, fizik hajm indeksi 76,5 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 643,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 188,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 54,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyul	2023-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	245 951,6	65 480,5	- 180 471,1
Issiqlik energiyasi, ming, gkal	4 133 317,0	3 279 012,0	- 854 305,0


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda \*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 124,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyul	2023-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	21 166,3	29 927,5	8 761,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	57,5	65,1	7,6
Plastmassa chiqindilari, tonna	437,1	1 763,0	1 325,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda \*



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm






\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 32,8 % shuningdek, Toyloq 12,2 %, Urgut 11,6 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,9 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm    ○ o'sish sur'ati, %





## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 417,4 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 3 340,9 ming so'mni, Toyloq tumanida 3 300,3 ming so'mni, Jomboy tumanida 2 830,1 ming so'mni va Samarqand tumanida 2 370,1 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-iyul  
ming so'm



yanvar-iyul  
o'sish sur'ati




■ ming so'm o'sish sur'ati, %



Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 866,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari



2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 2 990,8 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,3 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung'ur tumani (156,3 %), Oqdaryo tumani (132,4 %), Jomboy tumani (130,1 %) hamda Ishtixon tuman (123,8 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

## Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 51,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 49,0 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 35,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 64,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 108,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 100,0 % ni tashkil etdi.





## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 40,3 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 14,3 %, Samarqand 9,5 %, hamda Ishtixon tumani 6,9 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 25,6 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 14,2 % ni, Toyloq tumani esa 14,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyul  
mlrd. so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-iyul  
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm    o'sish sur'ati, %

## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 151 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 189 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,3 %) Samarqand shahriga, 833 tasi (13,5 %) Urgut tumaniga, 625 tasi (10,2 %) Samarqand tumaniga, 500 tasi (8,1 %) Pastdarg'om tumaniga va 366 tasi (6,0 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami yangi tashkil etilgan

**860 ta**

2023-yil yanvar-iyul

**1 106 ta**

2022-yil yanvar-iyul

**1 265 ta**

2021-yil yanvar-iyul



### Jami faoliyat yuritayotgan

**6 151 ta**


2023-yil 1-avgust holatiga

**8 517 ta**

2022-yil 1-avgust holatiga

**7 887 ta**

2021-yil 1-avgust holatiga








## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 729,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyul  
mlrd. soʻm



yanvar-iyul  
ulushi %



■ mlrd. soʻm oʻsish sur'ati, %